



“ILM-FAN VA TA’LIM” JURNALIGA QABUL QILINGAN MAQOLALARGA 3 ISH KUNIDA  
DOI RAQAM OLINADI VA ZENODO, OPENAIRE, CYBERLENINKA, GOOGLE SCHOLAR  
(10 ISH KUNI) KABI XALQARO ILMIY BAZALARDА INDEKSLANADI VA ILMIY JURNAL  
TO’LIQ SHAKLDA WWW.ILMFANVATALIM.UZ RASMIY SAYTIGA JOYLANADI.

ISSN: 2181-4325

# ILM-FAN VA TA’LIM

**Respublika ilmiy jurnali**

ZENODO | OPENAIRE | CYBERLENINKA | GOOGLE SCHOLAR

Aniq fanlar

Tabiiy fanlar

Tibbiyot fanlari

Texnika fanlari

Iqtisod fanlari

Filologiya fanlari

Pedagogika fanlari

Arxitektura

Qishloq xo‘jaligi

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

San’at va madaniyat fanlari

Jismoniy tarbiya va sport


“Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnaliga qabul qilingan maqolalarga 3 ish kunida DOI raqam olinadi va Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Google scholar (10 ish kuni) xalqaro ilmiy bazalarida indekslanadi va jurnal to‘liq shaklda <https://ilmfanvatalim.uz/> rasmiy saytiga joyланади.

# ILM-FAN VA TA’LIM

## ILMIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

30.04.2024 | № 6(21)



## ILM-FAN VA TA’LIM

ilmiy jurnal  
scientific journal  
научно журнал

Bosh muharrir:  
O.S.Istroilov

Jurnal bir oyda bir marta  
nashr etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti  
Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va  
ommaviy kommunikatsiya  
agentligida 2023- yil  
22 - yanvarda 059679  
raqam bilan ro‘yxatga  
olingan.

ISSN 2181 - 4325

Jurnaldan maqola ko‘chirib  
bosilganda, manba  
ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14  
E pochta: talqin@bk.ru  
Сайт: <https://ilmfanatalim.uz/>

### Tahrir kengashi:

#### Isroilov Shaakram Xalmatovich

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash  
va malakasini oshirish instituti “Jismoniy tarbiya nazariyasi va  
uslubiyati” kafedrasining professori

#### G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy  
markazi Tillarni o‘qitish metodikasi kafedras  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

#### Yadgarova Ozoda Ibragimovna

Samarqand davlat chet tillar instituti gumanitar fanlar va axborot  
texnologiyalari kafedrasи dotsenti

#### Muydinov Erkin Djamaldinovich

Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani  
Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

#### Djurakulova Dilfuza Farxodovna

Samarqand Davlat universiteti psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi,  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

#### Mamatov Obidxon Vaqqosovich

Namangan davlat universiteti “Milliy g’oya, ma‘naviyat va huquq  
asoslari” kafedrasи mudiri, falsafa fanlari nomzodi

#### Baymenova Kamshat Saparbayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

#### Yusupov Axror Qurbonovich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti,  
siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

#### Rabbonayeva Dildora Tolipovna

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish  
milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim  
kafedrasи katta o‘qituvchisi

#### Ganiyeva Lola Muxsindjanovna

O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy Estrada San’ati  
instituti “Estrada cholg‘u ijrochiligi” kafedrasи dotsenti  
San’atshunoslik fanlari nomzodi

#### Akbarov Qobuljon

Qo‘qon davlat pedagogika instituti  
Tarix fanlari nomzodi

#### Nuriddinova Maysara Ikramovna

Samarqand davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim metodikasi  
kafedrasи dotsenti

#### Maxkamova Dilafruz Yuldashevna

O‘zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasи  
dotsenti

## BUXORO VILOYATIDA G‘O‘ZA O‘RGIMCHAKKANASIGA (*TETRANYCHUS URTICAE KOCH.*) QARSHI KURASHISHDA RONIN EM.K. PREPARATINING SAMARADORLIGI

**Shonazar Hojiyevich To‘xtayev**

Buxoro davlat universiteti dotsenti

**Xayrullayev Muhiddin Faxriddin o‘g‘li**

Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

**Odilov Shaxriyor Erkin o‘g‘li**

Buxoro davlat universiteti talaba

[m.f.xayrullayev@buxdu.uz](mailto:m.f.xayrullayev@buxdu.uz)

**Annotatsiya:** Buxoro viloyati fermer xo‘jaliklar va tabiiy iqlim sharoitida samarali mexnat qilib yuqori xosildorlikga erishish uchun hosildorlikning pasayishiga olib keluvchi zararli organizmlarni kamaytirishda kam zaharli yangi kimyoviy preparatlarni o‘rganish hozirda qishloq xo‘jalik maxsulotlarini yetishtirishda asasiy vazifalardan biri yangi preparatlarni har bir mintqa sharoitiga mos kelishini qo‘llash asosiy masalalardan biridir.

Respublikamiz fermer xo‘jaliklarida g‘o‘zaning eng xavfli zararkunandasi bo‘lgan oddiy o‘rgimchakkana (*Tetranychus urticae Koch.*) qarshi zamonaviy, atrof-muhitga kam zaharli, foydali hasharotlar hamda issiqqonli hayvonlarga salbiy ta’siri kam bo‘lgan va hosildorlikni oshirishda RONIN em.k. preparatining samaradorligi ijobiy ekanligi tajribalarimizda o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar:** G‘o‘za, o‘rgimchakkana, preparat, tajriba, tuproq, hosildorlik, samaradorlik, Avtomaks, kasallik, zararkunanda, qishloq xo‘jalik.

**Аннотация:** Для достижения высокой продуктивности в хозяйствах и природно-климатических условиях Бухарской области исследование новых малотоксичных химических препаратов для снижения вредных организмов, вызывающих снижение урожайности, в настоящее время является одной из основных задач при выращивании сельскохозяйственной продукции. Одним из основных вопросов является обеспечение совместимости.

Против обыкновенного паутинного клеща (*Tetranychus urticae Koch*), который является наиболее опасным вредителем хлопчатника в хозяйствах нашей республики, современные, менее токсичные для окружающей среды, полезные насекомые и теплокровные животные оказывают мало отрицательное воздействие и повышают продуктивность, повышая РОНИН эм.к. Положительная эффективность препарата отражена в наших экспериментах.

**Ключевые слова:** Хлопок, паутинный клещ, препарат, эксперимент, почва, продуктивность, эффективность, Автомакс, болезнь, вредитель, сельское хозяйство.

**Abstract:** To achieve high productivity on farms and in the natural and climatic conditions of the Bukhara region, the study of new low-toxic chemicals to reduce harmful organisms that cause a decrease in yield is currently one of the main tasks in growing agricultural products. One of the main issues is ensuring compatibility.

Against the common spider mite (*Tetranychus urticae Koch*), which is the most dangerous pest of cotton on the farms of our republic, modern, less toxic to the environment, beneficial insects and warm-blooded animals have little negative impact and increase productivity, increasing RONIN em.k. The positive effectiveness of the drug is reflected in our experiments.

**Key words:** Cotton, spider mite, drug, experiment, soil, productivity, efficiency, Automax, disease, pest, agriculture.

## KIRISH.

G‘o‘za o‘simpliklari hosildorligini oshirish, kasalliklar va zararkunandalardan saqlash uchun chidamli navlarni tanlab olib ekishda qishloq xo‘jaligi bozori iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirish kabilar katta ahamiyat kasb etadi.[1,2,5]

G‘o‘za o‘simpligiga zarar yetkazadigan zararkunandalardan eng xavfli zararkunanda o‘rgimchakkana hisoblanib uning biologiyasi keng va atroficha o‘rganilgan. Buxoro vohasida ham o‘rgimchakkana g‘o‘zaga deyarli zarar yetkazib, paxta hosilini 25-30% ga kamaydi. Bizning olib boradigan tajribamizning asosiy maqsadi o‘rgimchakkananing g‘o‘zaga zarar yetkazish muddatlarini aniqlab unga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqarish darajasini keng qo‘llashdir.

O‘rgimchakkanaga 248 tadan ortiq o‘simplik turini zararlaydi, shundan 173 ta begona o‘tlar va manzarali o‘simpliklarga, 38 ta daraxt va butalarga to‘g‘ri keladi.

G‘o‘za o‘simpligi ekiladigan tuman va hududlarda o‘rgimchakkana “*Tetranychus urticae Koch*.” turi keng tarqalgan bo‘lib, bu zararkunanda paxta hosilining 30-40% ini nobud qiladi. F.M.Uspenskiy ma'lumotlari bo‘yicha o‘rgimchakkana iyun oyida g‘o‘zaga tushganda himoya chorasi olib borilmasa 50-60% va avgust oyida tushsa 2-6% gacha hosildorlikni kamaytiradi. [3,4]

O‘rtacha g‘o‘zaning har 100 ta bargida 150 ta o‘rgimchakkana uchrasa shu muddatda unga qarshi akaratsidlar bilan himoya qilish tavsiya etiladi. O‘rgimchakkaning faol harakatlanishi uchun 25-30°C issiqlik va havoning nisbiy namligi esa 45-65% bo‘lishi kerak. O‘rgimchakkaning urg‘ochisi 30 kungacha hayot kechirib 200 va undan ko‘p tuxum qo‘yadi. O‘rgimchakkana erta bahorda begona o‘tlarda uchraydi. Ular yo‘l atrofidagi begona o‘tlarda boshqa mavzelarda joylashgan begona o‘tga nisbatan 20-30 marta ko‘p uchraydi. [6,7]

2022-2023 yillar davomida Buxoro viloyati Jondor tumani Buxoro viloyati Jondor tumani Xumin MFY “Jondorlik Olimjon Zamini” fermer xo‘jaligida qadimdan sug‘oriladigan allyuvial o‘tloqi tuproqlarda o‘tkazilgan tajribalarimiz natijasida shu aniq bo‘ldiki, o‘rgimchakkana g‘o‘za o‘simpligida aprelning oxiri may oyining boshida uchrab har bir 100 g‘o‘za bargiga 14-15 donadan to‘g‘ri keladi.

G‘o‘za o‘simpligida uchraydigan o‘rgimchakkanaga qarshi kurashishda RONIN em.k preparatining samaradorligini o‘rganish uchun quyidagi variantlarda tajriba qo‘yildi.

1.Nazorat (suv bilan)

2. Samoktin 1,8% em,k 0.4 l/ga suspenziya konsentrati taqqoslovchi .
3. Ronin em.k (0.5 l/ga) li emulsiya konsentrati.
4. Ronin em.k (0.6 l/ga) li emulsiya konsentrati.

Tajribada g‘o‘zaning Buxoro-6 navida foydalanildi. Dala tajribalari 100 m<sup>2</sup> maydonda uchta takroriy joylashgan bo‘lib g‘o‘za ko‘chatining bir gektarida 90-94 ming dona qalinlikda joylashgan.

2022-2023 yillar 13-14 iyulda ertalab “Avtomaks” ransevoy apparati yordamida 350 l/ga me’yorida ishchi suyuqlik g‘o‘za o‘simpligiga purkaladi. O‘rgimchakkanaga qarshi qo‘llanilgan preparatning samaradorligini o‘rganish uchun hisob-kitob ishlari olib borildi.

1-jadval.

G‘o‘za ekinidagi o‘rgimchakkanaga qarshi kurashishda Ronin em.k preparatining samaradorligini (2022-2023 yillar uchun). Buxoro viloyati Jondor tumani Xumin MFY “Jondorlik Olimjon Zamini ” fermer xo‘jaligi

Tajriba variantlari.	Sarflangan preparat me’yori l/ga	O‘rtacha bir dona bargdagisi o‘rgimchakkananing soni				Kunlar orasidagi samaradorligi%		
		Ishlovgacha	Ishlovdan keyingi kunlargacha					
		13.07	3	7	14	3	7	14
1.Nazorat (suv bilan)	0	61.8	65.0	100.5	1.7	-	-	-
2. Samkotin 1.8% em.k 0.4 l/ga	0.4	42.0	1.5	0.8	21.0	96.5	98.1	50.0
3.Ronin em.k	0.5	38.0	15.0	2.5	0.8	60.6	94.5	97.9
4. Ronin em.k	0.6	75.0	3.0	1.8	0.5	96.0	97.6	99.6

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan shu ma’lum bo’ldiki, o‘rgimchakkanaga qarshi kurash choralari qo‘llanganda 7 kundan keyin kimyoviy preparatlar o‘rgimchakkanalar sonining kamaytirishida o‘z ta’sirini ko‘rsatib, Jondor tumani Xumin MFY “Jondorlik Olimjon Zamini” fermer xo‘jaligi 14 kundan keyin bo‘lsa ularning miqdori 99.6% gacha kamaydi. Samkotin 1.8% em.k 0.4 l/ga preparati qo‘llangan variant ham, o‘rgimchakkanani kamaytirishiga olib keldi, lekin bu preparatni tarkibida oltungugurt bo‘lganligi sababli iqlim tuproq sharoitida namlikning kamligi va havo haroratni yuqori bo‘lganligi sababli ta’sir kuchi uzoq muddatga bormadi va hosilni saqlashda o‘z ta’sirini yo‘qotdi.

O‘tkazilgan tajribalardan va olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki qo‘llanilgan yangi RONIN em.k preparati g‘o‘za o‘simpligiga uzoq muddatga ta’sir etib, uni o‘rgimchakkanadan himoya qilib, nihoyat hosilning oshirishiga sabab bo‘ldi.

## 2-jadval.

G‘o‘za o‘rgichakkasiga qarshi kurashishda RONIN em.k. preparatini hosildorlikka ta’siri. Buxoro viloyati Jondor tumani Xumin MFY “Jondorlik Olimjon Zamini ” fermer xo‘jaligi.

Variantlar	Sarflangan preparatlar me’yori l/ga	Hosildorlik, s/ga			
		2022		2023	
		Hosildorlik, s/ga	Qo‘sish cha hosil, s/ga	Hosildorlik, s/ga	Qo‘sish mcha hosil, s/ga
1.Nazorat (suv bilan)	-	30.5	-	28.8	-
2. Samkotin 1.8% 0.4 l/ga	0.4	34.8	4.3	32.5	3.7
3.Ronin em.k	0.5	35.3	4.8	34.0	5.2
4.Ronin em.k	0.6	36.0	5.5	34.5	5.7

2-jadvalda keltirilgan natijalardan ko‘rinib turibdiki, 2 yil davomida olib borilgan tajribalarimiz Buxoro viloyati Jondor tumani Xumin MFY “Jondorlik Olimjon Zamini” fermer xo‘jaligi sharoitida nazorat variantini har bir bargda zararkunanda soni 63.3 va 70.1 dona yilning oxirida paydo bo‘ldi, kimyoviy preparatlar ayniqsa RONIN em.k. qo‘llangan variantlarda esa o‘rgimchakkana to‘liq yo‘qoldi. Variantlar bo‘yicha hosildorlikni saqlab qolishda Ronin em.k preparati 0.5-0.6 l/ga me’yorida

qo‘llanilganida 4.8 dan 5.7 s/ga qo‘sishmcha paxta hosili olishga erishildi. Shuningdek, Buxoro viloyati yetishtiriladigan g‘o‘za o‘simgida o‘rgimchakkaga qarshi kurashishda RONIN em.k. 0.5-0.6 l/ga me’yorida qo‘llash, qadimdan sug‘oriladigan allyuvial o‘tloqi tuproqlarda g‘o‘za o‘simgi o‘sish va rivojlanishiga ijobiy ta’sir etib har bir gektardan 34-36 sentnerdan hosil olishga imkon yaratildi, qo‘sishmcha hosil bo‘lsa 4.8-5.7 s/ga bo‘ldi.

### **Xulosa.**

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Buxoro viloyatida Jondor tumanida g‘o‘zaga o‘rgimchakkanasiga qarshi kurashda RONIN em.k. 0,4-0,5 l/ga hajmda foydalanish uzoq muddat sug‘oriladigan allyuvial o‘tloq tuproqlarda samarali bo‘ladi. Paxta o‘simgi o‘sishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, 34-36 s/ga qo‘sishmcha hosil bilan esa 4,8-5,7 s/ga hosil olish mumkin edi.

O‘tkazilgan tajribalar va olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, g‘o‘za o‘simgiga qo‘llanilgan yangi RONIN em.k. preparati issiqxonli hayvonlar va foydali hasharotlarga boshqa dori vositalariga nisbatan ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi va pirovardida hosildorlikning ijobiy o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alimuhammedov S.N. Интегрированная защита удобная и качество производства, «Хлопководство», Moskva 1983. стр.6-8.
2. Alimuhammedov S.N. Исследования по защите хлопкового поля «Защита растение»,Moskva, 1983 стр. 18-20.
3. Успенский Ф.М. Обыкновенные паутины клещ в орошаемых районах средней Азии. Акад. С.Х. O‘zbekiston.Tashkent.1996. 62 б.
4. Успенский Ф.М. Какой битой корици системы интегрированной защиты завода, «Хлопководство» Moskva. 1975. стр. 25-30
5. Яхонтов В.В O‘rta Osiyo qishloq xo‘jalik zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralar. O‘zbekiston, Tashkent 1962. 197-211 bet,
6. Sh.H.To‘xtayev F.A. Ganiyeva “Qishloq xo‘jaligining asosiy ekinlarni zararli organizmlari va ularga qarshi kurashni biologik usullari”, Uslubiy qo‘llanma Buxdu. Sharq nashryoti 2020.17 bet.
7. Sh.X.To‘xtayev. M.F.Xayrulloev va boshqalar “Sulfur in nature it’s impact on spiders, “Web of conferens”-2023 year.

26.	«ЮСУП-АХМЕТ» ДӘСТАНЫНЫҢ ИЗЕРТЛЕНИЙИ Хурлиман Көптилеўова	147
27.	ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ, КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ Лещенко И. И	150
28.	ВЛИЯНИЕ ЭКДИСТЕРОИДОВ НА МИТОХОНДРИАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ КЛЕТОК МЛЕКОПИТАЮЩИХ Рузимурадова Шахноза Илхомжон кизи	158
29.	NASTARIN ÓSIMLIGINNG BIOLOGIK XUSUSIYATLARI AHAMIYATI VA UNDAN XALQ TABOBATIDA FOYDALANISH USULLARI Karimova Vazira	162
30.	РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЛОВАРЕЙ В БИЗНЕС-АНАЛИТИКЕ Юлдашева Диленаза Бекмуродовна Кахрамонов Зубайдулло Зафарович	164
31.	BUXORO VILOYATIDA G‘O‘ZA O‘RGIMCHAKKANASIGA (TETRANYCHUS URTICAE KOCH.) QARSHI KURASHISHDA RONIN EM.K. PREPARATINING SAMARADORLIGI Shonazar Hojiyevich To‘xtayev Xayrullayev Muhriddin Faxriddin o‘g‘li Odilov Shaxriyor Erkin o‘g‘li	169
32.	ТЕНДЕНЦИЯ ДИАЛОГА КУЛЬТУР В ПРЕДСТАВЛЕНИИ РУССКОЯЗЫЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ УЗБЕКИСТАНА Чернова Татьяна Алексеевна	174
33.	ҚАРАҚАЛПАҚ РОМАНЛАРЫНДА СЮЖЕТТЕ ТҮС КӨРИЎ МОТИВИНИҢ БЕРИЛИЙИ Х.Утемуратова	178
34.	МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВОЗНАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ Халматова О. А	182
35.	ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫЕ И ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ФОРМЫ И МЕТОДЫ РАБОТЫ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ Шодиева Л.Б	191
36.	MAMLAKATIMIZDA YOSHLAR BANDLIGINI TA’MINLASHDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR HAMDA YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING MUHIM PSIXOLOGIK VAZIFALARI Navbahor Axmedova Najmiddinovna	199
37.	BOLA SHAXSINING KAMOL TOPISHIDA OILANING O’RNI Jabborova Fotima Toshpo’latovna	202
38.	O’SMIR YOSHIDAGI BOLALARDA KUZATILADIGAN EMOTSİNAL HOLATLAR Narziyeva Madina Asqar qizi	211
39.	O’QUVCHILARDAGI PSIXOLOGIK HOLAT - AGRESSIVLIK MUAMMO SIFATIDA Ismoilova Halimaxon Yuldashevna	215
40.	SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Zamiraxon Mirzabadalova O’ktamovna	219
41.	SINF RAHBARI VA MAKTAB IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA’LIM MAKTABI AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING BO‘SH O’ZLASHTIRUVCHI O’QUVCHILAR BILAN ISHLASHDAGI O’ZARO HAMKORLIGI	224